

O'ZBEKISTON SSR JANUBIY HUDUDLARIDA SUD TIZIMINI ISLOH QILISH SIYOSATI VA UNING AMALGA OSHIRILISHI (XX-ASRNING 30-YILLARI MISOLIDA)

Xudoykulov Ixtiyor Baxtiyorovich

QarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola XX-asrning 30-yillari misolida O'zbekiston SSR janubiy hududlarida sud tizimini isloh qilish siyosatini va uning amalga oshirilishini tahlil qiladi. Tadqiqot Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida xalq va okrug sudlarining faoliyati, sud kadrlarini tayyorlash, huquqiy va ma'muriy islohotlar hamda ish yuritish tizimidagi muammolarni o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, sud tizimining markazlashtirilishi, kadrlarning yetishmasligi va huquqiy islohotlar sud organlarining samarali ishlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: sud tizimi, sud islohotlari, O'zbekiston SSR, Qashqadaryo, Surxondaryo, xalq sudyalari, okrug sudlari, kadrlar tayyorlash, huquqiy islohotlar, ma'muriy boshqaruv.

Аннотация: Статья анализирует политику реформирования и реализацию судебной системы в южных регионах Узбекской ССР в 1930-е годы. Исследование охватывает деятельность народных и окружных судов Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей, кадровое обеспечение, правовые и административные реформы, а также проблемы ведения дел. Результаты показывают, что централизация системы, нехватка кадров и правовые реформы существенно повлияли на эффективность работы судов.

Ключевые слова: судебная система, судебные реформы, Узбекская ССР, Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область, народные судьи, окружные суды, подготовка кадров, правовые реформы, административное управление.

Abstract: This article examines the reform policies and implementation of the judicial system in the southern regions of the Uzbek SSR during the 1930s. The

study investigates the activities of people's and district courts in Kashkadarya and Surkhandarya, judicial staffing, legal and administrative reforms, and challenges in case management. The findings indicate that centralization, staff shortages, and legal reforms significantly impacted the efficiency of the courts.

Keywords: judicial system, judicial reforms, Uzbek SSR, Kashkadarya, Surkhandarya, people's judges, district courts, judicial staffing, legal reforms, administrative management.

Kirish. SSSR hukumatining 1932-yil 7-avgustda sotsialistik mulkni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni asosida "kolxoz... mulkini talon-toraj qilganligi uchun sud jazo sifatida otish va barcha mol-mulkini musodara qilish", yumshatuvchi holatlarda esa "10 yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish va butun mol-mulkini musodara qilish" belgilab qo'yildi. O'zbekistonda mazkur qonunga muvofiq, 1933-yilning o'zida 2,5 ming dehqon ma'muriy javobgarlikka tortildi[1].

1933-yilda Qashqadaryo viloyati xalq sudi qoshida maxsus hay'at tashkil etilgan bo'lib, uning raisi sifatida sudya Sharof Karimov ish yuritgan. Mazkur hay'atning 1933-yil birinchi choragidagi hisobotida kolxoz mulkini talon-toraj qilgan 43 nafar fuqaro ustidan sud ishlari kurilganligi, ularning 27 nafari 10 yildan yuqori muddatga ozodlikdan mahrum etilib, qolganlariga yumshatuvchi jazo sifatida mol-mulki musodara qilingan holda 5-7 yillik qamoq jazolari tayinlanganligi aytib o'tiladi[2].

Asosiy qism. Surxondaryoda Sherobod, Sariosiyo va Denov tuman sudlari ham katta hajmda ish yuritgan. Ayrim hollarda mahalliy rahbarlar sudlarni o'z maqsadlariga yetkazish uchun ishlatgan. Masalan, Sherobod tumanida Safar Xujaev raqibi Mirjalol Abdullaevni kolxoz mulkini talon-toraj qildi, deb ayblatib, sud orqali uni 8 yilga qamatgan. Keyinchalik, Markaziy nazorat komissiyasi tekshiruvidan so'ng uning aybi isbotlanmagani ma'lum bo'lgan[3].

O'zbekiston SSR MIQning 1935-yil 23-fevraldagi qaroriga asosan Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qaytadan tashkil etildi. Ushbu okruglarda

ham okrug sudlari faoliyat yuritgan[4]. Respublika bo'ysunuvidagi tumanlarda ish yuritgan xalq sudlarining hukm va qarorlar yuzasidan shikoyatlar O'zbekiston SSR Oliy sudida kassatsiya tartibida kurib chiqilgan. Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari hududida joylashgan xalq sudlariga nisbatan esa kassatsiya instansiyasi vazifasini tegishli okrug sudlari bajargan. Shunday kilib, 1935-yil O'zbekiston SSR sud tizimida umumiy yurisdiksiya sudlari qo'yidagilardan iborat edi: xalq sudi, okrug sudi, O'zbekiston SSR Oliy sudi. 1935-yilda O'zbekiston SSR Oliy sudiga birinchi instansiya sudi sifatida 410 ta ish kelib tushgan, shundan 395 tasi kurib chiqilgan, 15 ta ish esa qoldiq sifatida keyingi yilga o'tgan[5].

O'zbekiston sud organlarining 1934-1936-yillardagi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, ushbu yillarda jinoyatchilikning eng muhim turlari va toifalari bo'yicha jinoyat ishlari soni izchil kamayib borgani qayd etilgan edi. Agar 1934-yilda barcha turdagi jinoyatlar uchun sudlanganlar sonini 1936-yil bilan taqqoslasak, ayrim jinoyat turlari bo'yicha sudlanganlar soni 3 barobar va undan ham ko'proq kamaygan. 1936-yilda sudlangan shaxslar umumiy soni 1935 yilga nisbatan 32 foizga pasaygan[6].

1936-1937 yillarda respublikada xalq sudlari faoliyatini o'rganish va tekshirish jarayonida jiddiy kamchiliklar aniqlangan edi. Tekshirishlar shuni ko'rsatganki, xalq sudlarida 35 foizga yaqin sudyalar mutlaqo yordamsiz va foydasiz bo'lib, ular ijtimoiy qonuniylikni muntazam ravishda buzgan, pora olgan, o'g'irlik qilgan, odamlarni haqorat qilgan, ijtimoiy yaqin qatlamga mansub shaxslarni mayda jinoyatlar uchun qattiq jazolagan, shu bilan birga quloqlar, suiqasdchilar va boshqa xavfli toifadagi shaxslarni ozod qilgan. Shu sababli, 1936 yilda xalq sudlari tomonidan qonun buzgan holda hal etilgan 1660 ta jinoyat va 2715 ta fuqarolik ishi bekor qilinishi lozim deb topilgan[7].

Surxondaryo viloyati xalq sudi huzurida tashkil etilgan qo'yi komissiya o'z faoliyatini 1937-yil 2-dekabrda tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq 1938-yil 1-yanvargacha yakunlashi zarur bo'lgan edi. Biroq mahalliy sudyalar va tuman prokurorlari Respublika komissiyasining ko'rsatmalariga rioya etmaganliklari natijasida ish belgilangan muddatda tugatilmagan. Komissiya tomonidan kurib

chiqilgan ishlar asosan qishloq xujaligi artellari va dehqon xujaliklari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular Jinoyat kodeksining 211-moddasi asosida yuritilgan[8].

Natija va muhokamalar. Surxondaryo viloyatida 1937-yilda ko'rilgan ishlar tarkibida mehnat ishlari 30,2 foizni, aliment ishlari 13,3 foizni, uy-joy bilan bog'liq ishlar 5,2 foizni, kolxoz ishlari esa 5,9 foizni tashkil etgan. Ishlarni kurib chiqish muddatlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatganki, 10 kungacha kurilgan ishlar ulushi 1936 yildagi 38,9 foizdan 1937 yilda 47,6 foizgacha oshgan, bir oydan ortiq davom etgan ishlar esa qisman kamaygan[9]. Shu bilan birga, ayrim xalq sudlari haligacha o'z faoliyatini qayta tuzmagani va yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarmagani sababli, ishlar kurib chiqishda ortiqcha sustkashlik va sansalorlik yuzaga kelgan.

1937-yilda Surxondaryo viloyat sudlari tomonidan jamoat ishlari ham amalga oshirilgan. Masalan, 60 ta sanoat, korxona va qishloq sudi mavjud bo'lib, ulardan 52 ta sudning ishi tekshirilgan. Davlat sudlari tomonidan esa 283 ta ish kurilgan, jumladan, mehnat intizomini buzish, davlat mulkini shikastlantirish, chorvachilikka e'tiborsizlik, shaxsiy va jamoat mulkini o'g'irlash, haqorat va batareya, xizmat vazifasini bajarmaslik kabi ishlar bo'yicha sud jarayonlari o'tkazilgan[10]. Bu ishlar bo'yicha jami 475 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan, ulardan 240 nafarga jarima, 180 nafarga ommaviy tanbeh, 1 nafarga ishdan bo'shatish, 1 nafarga kasaba uyushmasidan chiqarish, 22 nafarga mehnatga majburlash va 28 nafarga boshqa choralar qo'llangan[11]. Sud ijrochilari esa 1937 yilda jami 2379 ta ijro varaqasini kurib chiqqan, ulardan 1923 tasini tugatgan, ammo 456 ta ish qolgan[12].

1938-yilda Sariosiyo xalq sudi uchastkasi faoliyatida jiddiy muammolar kuzatilgan edi. Sud a'zolari 4 oy davomida sud jarayonlarida ishtirok etmaganliklari tufayli kassatsiya hay'ati tomonidan jinoyat, kassatsiya va nazorat tartibidagi ishlar kurib chiqilmagan, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha ham orqada qolish holatlari yuzaga kelgan[13]. Bu esa sud tizimida kadrlar intizomi va tashkiliy nazoratning yetarli emasligini ko'rsatgan. Mazkur holat, partiya va sovet idoralari tomonidan belgilangan adolatni ta'minlash vazifalarining to'liq

bajarilmaganini hamda aholi ishonchini susaytirganini ko'rsatgan.

1938-yil holatiga kura, xalq sudi uchastkasida kurib chiqilayotgan ishlar soni 75 ta jinoyat va 53 ta fuqarolik ishini tashkil etgan. Yanvar oyida qabul qilingan ishlar soni 41 ta jinoyat va 26 ta fuqarolik ishidan iborat bo'lgan. Joriy yilning yanvar oyida esa 50 ta jinoyat va 27 ta fuqarolik ishi kurib chiqilgan. Shunga qaramay, 1 fevral 1938 yil holatiga kura, jinoyat ishlaridan 66 ta, fuqarolik ishlaridan esa 52 ta ish qoldiqda qolgan[14].

Xulosa. Xullas, bu davr Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida sud-huquq tizimini rivojlantirishda tub o'zgarishlar davri bo'lib, sud organlari faoliyatida huquqiy, ma'muriy va siyosiy o'zgarishlar bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda kechdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 366.
2. QVDA, R-34-fond, 1-ro'yhat, 261-ish, 24-varaq.
3. SVDA, 122-fond, 1-ro'yhat, 112-ish, 19-varaq.
4. Сулайманова Х.С. История советского государства и права Узбекистана: 1924-1937 гг. – Т. 2. – Ташкент: АН УзССР, 1963. – С. 628
5. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 395-ish, 76-varaq
6. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 395-ish, 7-varaq.
7. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 395-ish, 15-varaq.
8. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 522-ish, 22-varaq.
9. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 866-ish, 21-varaq.
10. SVDA, 122-fond, 1-ro'yhat, 231-ish, 91-varaq.
11. SVDA, 122-fond, 1-ro'yhat, 231-ish, 92-varaq.
12. SVDA, 122-fond, 1-ro'yhat, 231-ish, 96 – 98-varaqlar.
13. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 522-ish, 31-varaq.
14. O'z MA, R-904-fond, 9-ro'yhat, 522-ish, 31-varaq.